

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON  
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>L.T.Galimullina</b>	
Internal form of phraseological units with the components of precious stones and metals in the english language .....	1213
<b>A.O.Oxunov</b>	
Ingliz va O'zbek tillarida undov so'zlar (interjection)ning ifodalanishi .....	1217
<b>M.U.Mamadjanova</b>	
Linguocultural features of the epithets .....	1221
<b>M.U.Mamadjanova</b>	
Tilshunoslikda epitetning lingvistik tabiatи haqidagi turli qarashlar .....	1224
<b>M.M.Umaralieva</b>	
The significant role of lingua-psychological, pedagogy-didactic, and methodological factors in the planning and implementation of self-directed programs .....	1227
<b>Sh.A.Igamberdiyeva, A.G.Abdukadirov</b>	
Bit-dars texnologiyasi asosida ijodiy hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorligi tahlili .....	1232
<b>Sh.Z.Xolmatov</b>	
So'z urg'usining nazariy tavsifi va ahamiyati qiyosiy aspektida .....	1236
<b>M.M.Umaralieva</b>	
A proficient approach to self-directed learning .....	1241
<b>Sh.F.Latipov</b>	
Grammatical lacunas as markers of cultural and linguistic identity .....	1246
<b>Sh.F.Latipov</b>	
Lingvistik lakanani aniqlash haqida ayrim tushunchalar .....	1249
<b>A.A.Qosimov</b>	
Linguo-pragmatic typology of metaphors: the intersection of language and pragmatics .....	1252
<b>A.A.Qosimov</b>	
A linguo-cultural approach to metaphor classification: unveiling cultural concepts through figurative language .....	1258
<b>M.G'Zaylobidinova</b>	
Nodavlat ta'lif muassasalarida ta'lif oluvchilarning ta'lifni modernizatsiyalash orqali hayotiy ko'nikmalarini oshirish .....	1264
<b>Д.Ш.Ибрагимова</b>	
Сущность и структура иноязычной коммуникативной компетенции будущих учителей .....	1268
<b>Д.Ш.Ибрагимова</b>	
Эффективность использования театрализации в обучении студентов устойчивым базовым английским фразам для чрезвычайных ситуаций .....	1272
<b>Д.Ш.Ибрагимова, Й.Х.Музаффархонов</b>	
Использование театрализации в процессе формирования речевых навыков у студентов .....	1278
<b>M.N.Abduolimova</b>	
Theory of cognitive and conceptual metaphors .....	1282
<b>M.N.Abduolimova</b>	
Analysis of metaphors used in political texts .....	1286
<b>S.O'.Shermamatova</b>	
Analyses of J.D.Salinger's works .....	1291
<b>X.Zikiryoxonovna</b>	
Falsafiy-psixologik romanda tush motivi .....	1295
<b>X.Z.Umarova</b>	
Maktablar – qahramon qalb oynasi .....	1298
<b>Sh.A.Igamberdiyeva, A.G.Abdukadirov</b>	
Significance of motivation in developing students' creative cooperation skills .....	1301
<b>S.S.Usmanova</b>	
Jadidchilik va adabiy muhit xususida .....	1304
<b>V.Abdurakhmanov</b>	
Classification and description of the main alternative issues in social life .....	1307
<b>R.M.Turdimatova</b>	
The intricacies of irony: types and examples .....	1311



**MAKTUBLAR – QAHRAMON QALB OYNASI**  
**ПИСЬМА – ЗЕРКАЛО СЕРДЦА ГЕРОЯ**  
**LETTERS ARE THE MIRROR OF THE HERO'S HEART**

Umarova Xurshida Zikiryoxonovna

Farg'onan davlat universiteti tayanch doktoranti

*Annotatsiya*

*Badiiy psixologizmning bevosita usullaridan biri – roman kompozitsiyasiga kiritilgan maktublar falsafiy-psixologik romanlarda nafaqat syujetni harakatlantiruvchi, balki badiiy xarakter yaratish, qahramon ruhiyati va psixologizmini ochib berish vositasi sifatida ham xizmat qilad.*

*Аннотация*

*Один из прямых приемов художественного психологизма — буквы, включенные в композицию романа, в философско-психологических романах не только движут сюжет, но и служат средством создания художественного образа, раскрывая психику и психологию героя.*

*Abstract*

*One of the direct methods of artistic psychologism - the letters included in the composition of the novel in philosophical-psychological novels not only move the plot, but also serve as a means of creating an artistic character, revealing the psyche and psychology of the hero.*

**Kalit so'zlar:** falsafiy-psixologik roman, kompozitsiya, maktub, epistolyar roman, terapevtik funksiya

**Ключевые слова:** философско-психологический роман, композиция, письмо, эпистолярный роман, терапевтическая функция

**Key words:** philosophical-psychological novel, composition, letter, epistolary novel, therapeutic function

**KIRISH**

"Gertsog" romani poetikasida kompozitsiya yaxlitligini ta'minlashda bosh qahramon Moses Gertsogning maktublari muhim ahamiyat kasb etadi. Asar poetikasida qahramon psixikasining oynasi va introspeksiya vositasi bo'lgan maktublar shunchaki muloqot vositasigina emas, balki shakl va ma'no o'rtaсидаги integratsiyani ta'minlovchi muhim badiiy element sifatida namoyon bo'ladi.

Badiiy psixologizmning bevosita usullaridan biri – roman kompozitsiyasiga kiritilgan maktublar falsafiy-psixologik romanlarda nafaqat syujetni harakatlantiruvchi, balki badiiy xarakter yaratish, qahramon ruhiyati va psixologizmini ochib berish vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Syujet kompozitsiyasiga kiritilgan xat - qahramonning ichki o'y-fikrlari, his-tuyg'ulari va shaxsiy kolliziyasiga o'ziga xos oyna vazifasini o'taydi. Bu esa o'quvchilarga ularning motivlari, istaklari va kurashlarini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Insonning qiyofasi uning hayoti davomida shakllanib boradi va inson mavjudlik psixologiyasi turli darajada ongli estetik elementlari mavjud bo'lgan eslatmalar, kundaliklar, xatlar va boshqa hujjatlarda o'z aksini topadi.[1.12]

**ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA**

Jahon adabiyotida falsafiy-psixologik roman janrida epistolyar elementlardan, ya'nı maktub motividan foydalanish keng tarqalgan usullardan hisoblanadi. Masalan, "Zamonamiz qahramoni" romanida M. Lermontov Pechorinning murakkab ruhiyati haqida darak beruvchi qator xatlar va kundaliklardan foydalanadi. F. Dostoevskiyning "Aka-uka Karamazovlar" romanida Ivan Karamazov akasi Alyoshaga yo'zgan maktubida o'zining falsafiy skeptitsizmi va axloq, din hamda ekzistensial mavzular haqida bahs yuritadi. "Jinoyat va jazo" romanida esa bosh qahramon Raskolnikov Sonyaga yozgan iqror maktubida o'zi sodir etgan og'ir jinoyatdan chekayotgan

## TILSHUNOSLIK

ma'naviy azoblari va ichki g'alayonlarini ifodalaydi. Bu uning murakkab ruhiyatini tushunish imkonini beradi.

Falsafiy-psixologik roman qahramonlari ongining ichki jarayonlarini yozishmalar orqali taqdim etish o'quvchini inson psixologiyasining murakkabliklarini oshkor etish bilan birga, chuqur falsafiy g'oyalarni tafakkur etishga chorlaydi.

Qahramonlar yozishmalarini orqali voqeelikka oid muhim ma'lumotlar, qahramonlarning o'tmish xotiralari, sirlari yoki syujet davomida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan voqealarga oldindan ishora beriladi. Xatlar asar sujetining ba'zan tugun, ba'zan yechim shaklida muhim dramatik element rolini bajaradi.

Shuningdek, qahramonlar tomonidan yozilgan xatlar ularning mulohaza yuritish, tafakkur qilish, o'z hatti-harakatlarini tahlil qilish vositasi sifatida xarakter dinamikasini yaratish uchun ahamiyatlidir. Romanda takror xat yozish motivi ramziy ahamiyatga ega bo'lib, mavzu teranligini boyitishi mumkin.

## NATIJA VA MUHOKAMA

"Gertsog" romani arxitektonikasining noodatiy shaklini tashkil etgan maktublar leitmotivi asarda muhim ahamiyat kasb etgan. Maktublar markazida turgan funktsiylaridan biri – uning terapeutik ahamiyatidir. Shaxsiy va ekzistensial inqirozlarga duch kelgan bosh qahramon Gertsogning "yozma so'z"ga murojaat qilishi katarsis ko'rinishini oladi. Katarsis, ya'ni, Aristotel "Poetika"ning VI bobida fojiaga ta'rif berishda qo'llagan va qaysidir ma'noda fojia tomoshabinda kuchli tuyg'ularni uyg'otib, terapeutik ta'sirga ham ega; huddiki, bo'ron avjidan keyingi taranglikdan xalos bo'lish kabi, xotirjamlik hissining paydo bo'lishi.[2.115] Romandagi katarsis rolini bajargan maktublar qahramon ruhiy holatini davolovchi xususiyatga ega hisoblanadi.

O'zining ichki fikrlari va his-tuyg'ularini qog'ozda ifodalash harakati terapeutik jarayonga aylanib, unga duch keladigan qiyinchiliklarga qarshi turish va tushunish imkonini beradi.[3] Maktublari orqali Gertsog o'zi bilan o'zi muloqotga kirishadi, munosabatlardagi murakkabliklar, nikohining buzilishi va boshqa chuqur falsafiy savollar bilan kurashayotgani haqida fikr yuritadi. O'z mulohazalarini qog'ozga tushurish unga muvaffaqiyatsiz nikohlari va uning ortidan kelgan qator muammolaridan keyin boshidan kechirgan g'azab, chalkashlik va umidsizlikdan xalos bo'lishga yordam beradi.

"Dear Madeline, I am aware of all the misery and ruin I have brought upon myself and others, and I am deeply sorry. But I am trying to confront my mistakes, to understand them, and to move forward. Writing to you helps me to sort through my thoughts and emotions, to find some clarity amidst the chaos. I hope that by expressing myself honestly, I can begin to heal the wounds I have caused and find a path towards redemption. Your friendship and support mean the world to me, and I am grateful for your patience and understanding. Sincerely, Moses." [4]

*("Azizam Madlen, men o'zimga va boshqalarga olib kelgan barcha g'am-anduh va ko'ngilsizliklardan xabardorman va bundan qattiq afsusdaman. Lekin men endi o'z xatolarimga qarshi turishga, ulami tushunishga va oldinga intilishga harakat qilyapman. Senga xat yozish menga o'ylarim va his-tuyg'ularimni saralashga, tartibsizliklar orasida bir oz aniqlik topishga yordam beradi. Umid qilamanki, o'zimni halollik bilan ifodalash orqali o'zim keltirgan jarohatlami davolashni boshlayman va bu jarohatlardan xalos bo'lish yo'llini topaman. Sening do'stona munosabating va qo'llab-quvvatlashing men uchun olamga teng va men sening sabr-toqating va meni tushunganing uchun minnatdorman. Hurmat bilan, Moses. – tarjima o'zimizniki, X.U)*

## XULOSA

Gertsogning ushbu maktubidan ma'lumki, u o'zining o'tmishdagi xatolarini tan olib, pushaymonlik tuyg'usini his qilmoqda, vaziyatni to'g'ri qabul qilish va kechirim so'rash bilan o'z ruhiyatida taskinlikni topishga intilmoqda. Xat bitish jarayoni Gertsogga o'z fikrlari va his-tuyg'ularini tartibga solib, katarsisiga imkon beradi.

Qizig'i shundaki, Gertsogning maktublari u boshidan kechirgan jismoniy va ruhiy yolg'izlikka qaramay, boshqalar bilan aloqa vositasi bo'lib xizmat qiladi. Gertsog o'zining yozma so'zlarini orqali do'stlari, oilasi va tarixiy shaxslar bilan vaqt va makon chegaralariga bo'y sunmagan aloqa tarmog'ini o'rnatadi. Misol uchun, Gertsog sobiq xotiniga yozgan maktublaridan birida ular o'tasida o'sib borayotgan hissini masofani bartaraf etishga harakat qiladi. Uning bunday harakati o'z his-

tuyg'ularini ifodalash uchun ko'prik bo'lib, yuzma-yuz muloqotda uddalay olishi qiyin bo'lgan yarashuvga urinish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, falsafiy-psixologik roman poetikasida badiiy psixologizmning turli tasvir vositalariga murojaat qilinadi. Romanda qo'llanilgan badiiy psixologizmning maktub motivi inson tabiatini va ongingin murakkab tomonlarini taftish etish bilan birga roman syujet qurilishi, voqelar rivojini ta'minlashda hal qilluvchi vosita vazifasini bajaradi. Biz tahlilga "Gertsog" romani syujetiga kiritilgan 42ta maktub motivi roman syujetining retrospektiv xususiyatini ta'minlaydi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Гинзбург Л. О Психологической Прозе. Ленинград. Художественная Литература. 1977. С 12 бет
2. Cuddon J. The Penguin dictionary of literary terms and literary theory. Penguin books. USA. 1998. P 115
3. Vanheste J. No Pills, but Letters. Saul Bellow's Herzog: The Recovery of a Depressed Academic //Journal of Medical Humanities. – 2023. – Т. 44. – №. 2. – S. 129-144.
4. S. Bellow. Herzog. Penguin Books. 2003